

TARJIMADA NUTQIY KOMPRESSIYA VA UNING TURLARI

Tursinova Sabina Doniyor qizi

Tarjimonlik fakulteti 1-kurs talabasi

Yo'ldoshev Ulug'bek Ravshanbekovich

Ilmiy rahbar: Filalogiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada og'zaki tarjimada kompressiya masalalari, shuningdek sintaktik, leksik-frazeologik va semantik kompressiyalarni og'zaki tarjimada ishlatish usullari ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *kompressiya, leksik-frazeologik kompressiya, semantik kompressiya, sintaktik kompressiya.*

Annotation: *This article discusses compression issues in oral translation, as well as methods of using syntactic, lexical-phraseological and semantic compressions in oral translation.*

Key words: *compression, lexical-phraseological compression, semantic compression, syntactic compression.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются вопросы компрессии при устном переводе, а также способы использования синтаксической, лексико-фразеологической и семантической компрессии при устном переводе.*

Ключевые слова: *компрессия, лексико-фразеологическая компрессия, семантическая компрессия, синтаксическая компрессия.*

Fikrlash sohasi inson faoliyatida iqtisodiyot prinsipi sifatida namoyon bo'ladigan sohalardandir. Shu sababdan inson faoliyatining turli jabhalarida, shuningdek inson nutqida ham kam xarajatlarga intilish tabiiy ko'rinadi. Tilda tejamkorlik prinsipi universaldir. Yozma va og'zaki tarjima jarayonida bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilganda matn hajmi oshib deyarli bir-biriga mos kelmaydi. A.D.Shvaytser aytganidek, "har qanday tarjima ko'pincha asl matnning hajmidan oshib ketadi." Masalan, ingliz tilida qo'llaniladigan "what are you doing" birikmasini talaffuzda "Whatcha doing" tarzida ishlatiladi.

Tarjima nazariyasi va amaliyotida tejamkorlik prinsipi kompressiya atamasi orqali ifodalanadi. Tarjima sharoitida kompressiya manba matnini ixcham shaklga o'tkazish orqali, ya'ni ifodaning ortiqcha belgilarini tashlab yuborish bilan amalga oshiriladi. Bunda nafaqat kontekstdan va tildan tashqari vaziyatda, balki ixcham ifoda shakllaridan foydalangan holda matn yaratish kompressiya jarayonini qamrab oladi. Ingliz tilida nutqning bir xil ketishi uchun tarjima qilinayotgan tilning murakkab gaplarini bir necha oddiy gapga aylantiriladi yoki gaplar tarjima jarayonida faqat tinglovchiga aniq va tushunarli bo'lishi uchun kompressiya usulidan foydalangan holda qisqartiriladi. Shuningdek, bir tildagi gapni ikkinchi tilga tarjima qilganda uni oddiy qilib ikkita gap bilan tarjima qilish ham mumkin.

Kompressiya ko'pincha sinxron tarjima qilish jarayonida tarjima texnikasi sifatida ishlatiladi. Kompressiya notiqning nutqi tez bo'lganda va tarjimon bu nutqqa ulgura olmagan vaqtda qo'llaniladi. Shuningdek, tarjimon manba matnidan faqat ortiqcha va keraksiz so'zlarni olib tashlab tinglovchiga asosiy ma'lumotni yetkazishi kerak.

Shunday qilib, kompressiya-ma'lumotning ortiqcha miqdorini kamaytirishdir. Og'zaki tarjima davomida qo'llaniladigan kompressiyaning bir qancha usullari bor:

- 1.Sintaktik kompressiya;
- 2.Leksik-frazeologik kompressiya;
- 3.Semantik kompressiya.

L.Blumfild ingliz tili sintaksisida kompressiyaning namoyon bo'lishiga alohida e'tibor qaratgan

Sintaksisda kompressiya eng muhim o'rinni egallaydi. Bunda fikrni eng tejamkor usulda ifodalashga imkon beradi.

- 1.Sintaktik kompressiya.

Xerris transformatsion grammatikada kompressiya hodisasini namoyon bo'lishini ko'rib chiqadi. Bunda bosh gapda u yoki bu konstruksiyaning kiritilishida murakkab gapning ba'zi bo'laklarining qisqarishi ro'y beradi. Buning natijasida murakkab fikr oddiy gap shaklida beriladi. Shunday qilib katta hajmdagi axborotni ikkita, ba'zan bir nechta gapda beradigan, qisqartirilgan nisbatan tejamkor konstruksiyasi paydo bo'ladi. Gapda kompressiyadan foydalanish jarayonida this, that, no, it kabi va boshqa butun gaplarni almashtirish mumkin bo'lgan so'zlardan foydalanish mumkin. Ular bir butun jumlaning barcha xarakter xususiyatlarini o'zida namoyon qiladi. Masalan, "I don't love him?-who so ", "so" o'zida inkor semalarini modallikni, undan tashqari harakat subyektini, uning holati va harakatini birlashtiradi. Kompressiyaning bir turi bo'lgan sintaktik kompressiya yoki boshqacha qilib aytganda sintaktik qisqartirish asl nusxada ko'rsatilgan qurilish bilan taqqoslash orqali qisqa va sodda sintaktik qurilishni tanlashdir.

Tarjimon manba tilidagi o'xshash tuzilishdagi murakkab jummalarga duch kelganda, ularni semantik segmentlarga ajratadi va shu orqali tarjima qiladi, asl ma'noni saqlagan holda tarjimaning soddalashtirilgan bir qancha jumllarini oladi. Masalan:

The book which was written last year was sold- O'tgan yil yozilgan kitob sotildi.

In particular, attention should be given to the use of appropriate and immediate technology where possible- Kerakli va o'rtacha texnologiyalarga e'tibor qaratilishi kerak.

"It is an ironic habit of human beings to run faster when they have lost their way." "Odamlar yo'lidan adashganda tezroq yugurish istehzoli odatidir."

Sinxron tarjimon har doim ortiqcha ma'lumotni yo'q qilish bilan birga, har doim tarjimani aniq va ravshan qilishga intiladi.

- 2.Leksik-frazeologik kompressiya.

Tarjimadagi kompressiyaning yana bir turi bu leksik-frazeologik kompressiya bo'lib, bunda bir qancha turg'un birikmalar, iboralar, maqollar va boshqalarning eng qisqasini tanlab ularni bir so'z bilan almashtiriladi. Masalan: ingliz tilida qo'llaniladigan "as busy as a bee", "hard at work", yoki "on the jump" kabi bir-biriga sinonim bo'lgan birliklarni leksik-frazeologik kompressiyadan foydalanib, ularning o'rniga "busy", "swamped" kabilarni qo'llash mumkin. Boshqa bir misolga e'tibor beraylik: "open and shut" birligi bu oson, oddiy kabi ma'nolarni beradi va buni "simple" yoki "easy" so'zlari bilan almashtirib qo'llash mumkin.

3.Semantik kompressiya.

Semantik kompressiya tarjima ifodasida ortiqcha so'zlarning takrorlanishini kamaytirish hisoblanadi. Masalan ushbu gapga e'tibor qaratadigan bo'lsak, "ertaga Germaniyadan ishbiarmonlar delegatsiyasi mamlakatimiz poytaxti Toshkentga keladi-Tomorrow a delegation of business people from Germany arrives to Tashkent". Quyidagi gapda "mamlakatimiz poytaxti" birikmasi ortiqcha hisoblandi. Shuning uchun ham u semantik kompressiyadan foydalangan holda tarjimada faqat Toshkentning o'zini qoldirsak, ma'no chiroyliroq bo'ladi.

Yana bir misolga e'tibor qaratsak, "Each member of the team must know the task which he or she is responsible jamoaning har bir a'zosi o'z mas'uliyatini bilishi kerak". "The task which he or she" birikmasi semantik kompressiyaga uchragan.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, tarjimon tarjima jarayonida nutqning asosini tashkil etuvchi fikrlarni anglashi va bu vaqtda ularga yetarlicha urg'u berishi kerak. Nutqni tushunishning yo'li - bu nutqning asosini tashkil qiluvchi tushunchalarni aniqlab olish va ularning o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil etishdir. Til o'zgaradigan yo'nalish. Kompressiya til resurslarini toraytirmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Tarjima nazariyasi: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma /I.G 'ofurov, O.Mo'minov, N.Qambarov. - Toshkent: Tafakkur-Bo'stoni, 2012. 216 b.
2. [reja.tdpu.uz/shaxsiyreja/views/article/files/1897/КОНФЕРЕНЦИЯ%202119%20\(2\).pdf](https://reja.tdpu.uz/shaxsiyreja/views/article/files/1897/КОНФЕРЕНЦИЯ%202119%20(2).pdf).
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/tarjimashunoslikda-kompressiya-bilan-bog-liq-muammolar/viewer>.
4. <https://arxiv.uz/uz/documents/diplom-ishlar/tilshunoslik/lingvistik-kompressiyani-amalga-oshirish-usullarining-tahlili>.